Materiallar to’plami · Conference Proceedings
FarDU Ijtimoiy-gumanitar fanlar konfrensiyasi
TARIX VA TARIXIY XOTIRA (TARIX)
24–25 June 2026

QUVASOY SANOATINING SHAKLLANISHIDA “GANCH” ARTELINING O‘RNI (ARXIV MANBALARI ASOSIDA)

Sarvar Fayzillayevich Karimov*

Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti

MAQOLA MA‘LUMOTLARI

✉ karimov.sarvar.fayzullayevich@gmail.com

DOI: 10.5281/zenodo.21740825

Kalit so‘zlar:

Quvasoy sanoati, “Ganch” arteli, mahalliy sanoat kooperatsiyasi, qurilish materiallari ishlab chiqarishi, arxiv manbalari, tarixiy-tahliliy tadqiqot, sanoatlashuv, markazlashtirish siyosati.

ANNOTATSIYA

Maqolada XX asrning ilk yarmida Quvasoy sanoatida mahalliy kooperativ korxona sifatida faoliyat ko‘rsatgan “Ganch” artelining o‘rni va uning tugatilishiga olib kelgan omillar arxiv hujjatlari asosida o‘rganilgan. Tadqiqot Farg‘ona viloyati davlat arxivida saqlanayotgan hujjatlarga tayanib, manbashunoslik va tarixiy-tahliliy usullar orqali artelning tashkil etilishi, ishlab chiqarish quvvati, texnik jihozlanishi va moliyaviy holati tahlil qilinadi. “Ganch” artelining mahalliy xomashyo bazasiga tayangan holda Quvasoy sanoat infratuzilmasining shakllanishida muhim boshlang‘ich bo‘g‘in bo‘lgani va urushdan keyingi resurs va boshqaruv muammolari tufayli faoliyati tugatilgani ko‘rsatiladi. Maqola Quvasoy sanoatida kichik kooperativdan markazlashgan sanoat tizimiga o‘tish jarayonini ochib beradi.

Kirish. XX asrning birinchi yarmida O‘zbekistonda, xususan Farg‘ona vodiysida mahalliy sanoatni rivojlantirish jarayonida sanoat kooperatsiyasi muhim institutsional mexanizm sifatida shakllandi. Shaharsozlik va infratuzilma qurilishi jadallashgan sharoitda qurilish materiallariga bo‘lgan talabning ortishi mahalliy xomashyo bazasiga tayangan artellar faoliyatini iqtisodiy rivojlanishning asosiy omiliga aylantirdi. Shu nuqtai nazardan, Quvasoy shahrida tashkil etilgan “Ganch” arteli hududda sanoat ishlab chiqarishining ilk tayanch bo‘g‘inlaridan biri sifatida namoyon bo‘lib, qurilish materiallari va kulolchilik buyumlari ishlab chiqarish orqali Quvasoy sanoatlashuv jarayoniga asos soldi.

Quvasoy deganda ko‘pincha qurilish materiallari ishlab chiqaradigan katta zavod va korxonalar (sement, shifer, kimyo, ohak va boshq.) yodga tushadi. Ammo ushbu zavod va korxonalar barpo etilishidan oldin hududda kichik bo‘lsa-da, mahalliy talabga mos artel shaklida sanoat tuzilmasi paydo bo‘lgan edi. “Ganch” arteli ana shu kichik ishlab chiqarish korxonalari qatorida sanoatning ilk qadamlarini belgilab, mahalliy xomashyodan foydalangan holda qurilish materiallari ishlab chiqarishga ixtisoslashdi.

“Ganch” arteli faoliyati mahalliy sanoatdagi kichik ishlab chiqarish korxonalarining shakllanishi, ularning ishlab chiqarish quvvati, texnologik imkoniyatlari va boshqaruv tizimini o‘rganish nuqtai nazaridan ham muhim ilmiy ahamiyatga ega. Arxiv manbalarida ushbu artel sovet davrida mahalliy sanoat ustidan o‘rnatilgan iqtisodiy va ma’muriy nazorat mexanizmlari, rejalashtirish amaliyoti va moliyaviy intizomning amaliy ko‘rinishlarini aks ettiruvchi namuna sifatida qayd etilgan [1; 16–17]. Bu Quvasoy va atrof hududlarda qurilish materiallari ishlab chiqarishning iqtisodiy, texnologik va ijtimoiy ahamiyatini kompleks tahlil qilish uchun mustahkam manbashunoslik asosini yaratadi.

Shu bois, mazkur maqolada Quvasoydagi “Ganch” arteli faoliyatining tashkil etilishi va rivojlanish bosqichlari, ishlab chiqarish natijalari hamda uning tugatilishiga olib kelgan iqtisodiy va tashkiliy omillar ilmiy-tahliliy yondoshuv asosida o‘rganiladi. Tadqiqot orqali “Ganch” arteli misolida mahalliy sanoat kooperatsiyasining o‘rni va ahamiyatini ochib berish hamda Quvasoy sanoat tarixi rivojidagi o‘ziga xos qonuniyatlarni aniqlash

maqsad qilingan.

Qayd etish joizki, mazkur artel va uning faoliyati ilgari mustaqil tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan bo‘lib, mavjud ilmiy adabiyotlarda ham ushbu yo‘nalishda tizimli ma’lumotlar deyarli uchramaydi. Shu sababli tadqiqotning asosiy manbalarini Farg‘ona viloyati davlat arxivida saqlanayotgan jamg‘armalarga mansub hujjatlar tashkil etdi. Ushbu arxiv materiallari Farg‘ona viloyati va Quvasoy tumani ijroiya hokimiyati organlari, sanoat ittifoqlari hamda mahalliy artellarga oid qarorlar, hisobotlar, reviziya hujjatlari va ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini qamrab olib, artellar faoliyatining iqtisodiy, tashkiliy va texnik jihatlari haqida qimmatli axborotlarni taqdim etadi.

Asosiy qism. Quvasoy sanoatining shakllanishida “Ganch” artelining o‘rni va uning tugatilishi tarixi, arxiv hujjatlari asosida tahlil qilinganda, mahalliy qurilish materiallari ishlab chiqarish tarmog‘ining rivojlanishida bu korxonaning ahamiyati va imkoniyatlari aniq ko‘rinib turibdi. “Ganch” arteli 1928 yilda tashkil etilgan bo‘lib [2; 42], asosan qurilish materiallari (ohak, gips-alebastr, g‘isht mahsulotlari) hamda kulolchilik buyumlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Artel Quvasoy temir yo‘l stansiyasi hududida joylashgan bo‘lib, artel bilan stansiya o‘rtasidagi masofa 2 kilometrni tashkil etgan xolos [3; 195].

Artel tarkibida bir qator ishlab chiqarish ustaxonalari (sexlar) faoliyat ko‘rsatgan. Xususan, gips-alebastr sexi asosiy ishlab chiqarish bo‘linmalaridan biri bo‘lib, u motor bo‘limi, pech bo‘limi va alebastr maydalagich tegirmondan iborat edi. Motor bo‘limi 22 kvadrat metr maydonni egallab, tosh-betonli binoda joylashgan va mahalliy tom yopmasi bilan ta’minlangan. Ushbu bo‘limda «Chervonniy progress» markali, quvvati 22 ot kuchiga teng bo‘lgan ichki yonuv dvigateli mavjud bo‘lgan.

Gips-alebastr sexining pech bo‘limi 51,5 kvadrat metr maydonda joylashgan bo‘lib, yerga o‘rnatilgan pechlar 1,5 qator kuydirilgan g‘isht bilan issiqqa chidamli ichki qavat bilan qoplangan. Pechlarning umumiy sig‘imi 75 tonnani tashkil etgan. Ushbu bo‘limdagi alebastr maydalagich tegirmon 48 kvadrat metr maydonda joylashib, yog‘och ustunli va metall qoplamali tom bilan yopilgan naves ostida faoliyat ko‘rsatgan. Bu yerda tog‘ toshidan yasalgan 2 dona tegirmon toshi mavjud bo‘lib, ishlab chiqarish quvvati esa soatiga 2000 kilogramm bo‘lgan.

Bundan tashqari, artelda ohak sexi faoliyat ko‘rsatgan bo‘lib, u kuydirilgan g‘ishtdan qurilgan yerga o‘rnatilgan pechlar bilan jihozlangan. Ushbu sexda 2 ta pech bo‘lib, ularning umumiy sig‘imi 60 tonnani tashkil etgan.

G‘isht sexi xom g‘ishtdan qurilgan yerga o‘rnatilgan pechga ega bo‘lib, sig‘imi 20 tonna bo‘lgan 1 ta pech mavjud edi. Shuningdek, 131 kvadrat metr maydonda joylashgan cherepitsa sexi mavjud bo‘lib, u xom g‘ishtli binoda, mahalliy tom yopmasi bilan qurilgan va K-101P rusumli 2 dona qoliplash pressi bilan jihozlangan[4; 1].

Artel ixtiyorida 2 ta avtomashina mavjud bo‘lgan, traktor va otlar mavjud emas edi, 1 ta eshak hamda 2 ta arobadan foydalanilgan[4; 1].

Urushgacha bo‘lgan davrda «Ganch» arteli nisbatan barqaror ishlab chiqarish ko‘rsatkichlariga ega bo‘lgan. Xususan, yalpi mahsulot hajmi 1939 yilda 11 896 ming rublni tashkil etgan bo‘lsa, 1940 yilda 224 925 ming rublga, 1941 yil esa 304 830 ming rublga yetkazilgan[5; 39]. Bu holat mahalliy sanoat kooperatsiyasining hududiy qurilish ehtiyojlarini qondirishdagi rolini yaqqol namoyon etadi.

Ikkinchi jahon urushi yillari hamda urushdan keyingi dastlabki davrda artel faoliyati jiddiy qiyinchiliklarga duch kelgan. Arxiv materiallari xomashyo va yoqilg‘i ta’minotidagi uzilishlar, aylanma mablag‘larning yetishmasligi va ishchi kuchining kamayishi natijasida 1942–1946 yillarda ishlab chiqarish deyarli to‘xtab qolganini ko‘rsatadi. Ayrim sexlar konservatsiya qilingan, pechlar va ishlab chiqarish binolari esa ta’mirga muhtoj holatga kelib qolgan. 1946 yil oxiriga kelib artel a’zolari soni 17 nafargacha qisqarib, ishlab chiqarish quvvati keskin pasaygan[6; 196-198].

1947 yildan boshlab «Ganch» arteli faoliyatini tiklashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirila boshlandi. Bank orqali ajratilgan 100 ming rubllik kredit hisobiga gips-alebastr, ohak va g‘isht sexlari bosqichma-bosqich ishga tushirildi. Natijada ishchilar soni 53 nafarga yetdi, ularning 46 nafari ishlab chiqarishda bevosita ishtirok etgan [7; 12-14]. Bu jarayon artelning ishlab chiqarish faoliyatini qayta yo‘lga qo‘yishda muhim bosqich bo‘lgan.

Ishlab chiqarish koʻrsatkichlari dinamikasi ham tiklanish jarayonini tasdiqlaydi. Masalan, yalpi mahsulot hajmi 1932 yil oʻzgarmas narxlarda 1945 yilda 90,0 ming rublni tashkil etgan boʻlsa, 1946 yilda 64,0 ming rublga pasaygan, 1947 yilda esa 165,0 ming rublga yetgan. 1947 yilda artel tomonidan 181 tonna ohak, 225 tonna alebastr, 286 tonna gips va 122 ming dona xom gʻisht ishlab chiqarilgani qayd etilgan [8; 14, 199-204]. Shuningdek, kulolchilik mahsulotlari ishlab chiqarishi ham urushdan keyingi davrda qayta tiklangan.

Biroq, artel faoliyatida hal etilmagan tizimli muammolar saqlanib qolinadi. Jumladan, yoqilgʻi ta’minotining barqaror emasligi, transport vositalarining cheklanganligi va turar joy sharoitlarining qoniqarsiz holati ishlab chiqarish rejalarining toʻliq bajarilishiga salbiy ta’sir koʻrsatgan.

Buning natijasida 1949 yil davomida “Ganch” arteli belgilangan ishlab chiqarish rejasini faqat 26,8% darajada bajargan, ya’ni 1662 ming rubllik reja oʻrniga 434,4 ming rubl mahsulot ishlab chiqarilgani aniqlangan[9; 1]. Bu holat artelning tizimli muammolarni bartaraf etilmaslik bilan birga boshqaruv va nazoratning zaifligidan dalolat beradi. Masalan, ohak koni oʻz ixtiyorida boʻlishiga qaramay, artel uni boshqa zavoddan sotib olgan va bu moliyaviy samaradorlikning pastligini koʻrsatadi.

Faoliyatning susayishi va rejalarning bajarilmasligi, shuningdek, ishchi kuchining yoʻqotilishi va omborlarda material zaxirasi toʻplanib qolishi artelning moliyaviy nochorligiga olib kelgan. Bu omillar oxir oqibat 1950 yil 4 yanvarda Fargʻona viloyat sanoat kooperatsiyasi ittifoqi (Feroblpromsoyuz) tomonidan “Ganch” artelini tugatish toʻgʻrisida qaror qabul qilingan[10; 53]. Qarorda tugatish komissiyasini tashkil etish, ishlab chiqarish vositalarini “Zagotutilprom” arteliga topshirish, balans va moliyaviy hisobotlarni taqdim etish kabi choralar koʻzda tutilgan. Keyinchalik, Quvasoy tumani va Fargʻona viloyati ijroiya qoʻmitalari ushbu qarorni tasdiqlab, artelga tegishli obyektlar va resurslarni boshqa sanoat tarmoqlariga integratsiya qilishni amalga oshirgan[11; 70,165].

Shu asosda natija qilib aytish mumkinki, “Ganch” arteli Quvasoy sanoatining shakllanishida boshlangʻich rol oʻynagan, qurilish materiallari ishlab chiqarishda mahalliy ishchi kuchini jamlagan va sanoat infratuzilmasini rivojlantirishda birinchi bosqichda muhim ahamiyat kasb etgan. Biroq, texnologik va boshqaruv muammolari, moliyaviy nochorlik va markazlashtirish siyosati tufayli artelning mustaqil faoliyati toʻxtatilgan va uning vositalari boshqa korxonalarga integratsiya qilingan. Bu holat Quvasoy sanoatida kichik kooperativ korxonalardan katta markazlashgan sanoat tizimiga oʻtishni namoyon etadi.

Xulosa. Arxiv manbalari asosida olib borilgan tahlil “Ganch” artelining Quvasoy sanoatining shakllanishida muhim boshlangʻich boʻgʻin boʻlganini koʻrsatadi. Artel mahalliy xomashyo bazasiga tayangan holda qurilish materiallari ishlab chiqarishni yoʻlga qoʻyib, 1930–1950-yillarda hududning sanoatlashuv jarayoniga sezilarli hissa qoʻshgan. Urushgacha boʻlgan davrda ishlab chiqarish hajmlarining oʻsishi mahalliy sanoat kooperatsiyasining iqtisodiy samaradorligini tasdiqlaydi.

Biroq Ikkinchi jahon urushi va urushdan keyingi yillarda xomashyo, yoqilgʻi va ishchi kuchi taqchilligi, shuningdek transport va boshqaruv muammolari artel faoliyatining izchil rivojlanishiga toʻsqinlik qilgan. Rejalarning muntazam bajarilmasligi va moliyaviy nochorlik sharoitida markazlashtirish siyosati kuchayishi natijasida “Ganch” artelining tugatilishiga olib kelgan.

Umuman olganda, “Ganch” arteli Quvasoy sanoati tarixida kichik kooperativ korxonalardan markazlashgan sanoat tizimiga oʻtish jarayonini aks ettiruvchi muhim tarixiy misol hisoblanadi. Tadqiqot natijalari hududiy sanoat rivojining dastlabki bosqichlarini ilmiy jihatdan anglash va mahalliy sanoat kooperatsiyasining imkoniyatlari hamda cheklovlarini baholash uchun nazariy-manbashunoslik asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Fargʻona viloyati davlat arxivi 2282-jamgʻarmasi, 1-roʻyxat, 9-ish, 16–17-varoq;

[2] Fargʻona viloyati davlat arxivi 2282-jamgʻarmasi, 1-roʻyxat, 2-ish, 42-varoq;

[3] Fargʻona viloyati davlat arxivi 1124-jamgʻarmasi, 2-roʻyxat, 51-ish, 195-varoq;

[4] Fargʻona viloyati davlat arxivi 2282-jamgʻarmasi, 1-roʻyxat, 33-ish, 1-varoq;

[5] Farg‘ona viloyati davlat arxivi 2282-jamg‘armasi, 1-ro‘yxat, 2-ish, 39-varoq;

[6] Farg‘ona viloyati davlat arxivi 1124-jamg‘armasi, 2-ro‘yxat, 51-ish, 196–197-varoq;

[7] Farg‘ona viloyati davlat arxivi 2282-jamg‘armasi, 1-ro‘yxat, 2-ish, 12-14-varoq;

[8] Farg‘ona viloyati davlat arxivi 1124-jamg‘armasi, 2-ro‘yxat, 436-ish, 14-varoq;

[9] Farg‘ona viloyati davlat arxivi 2151-jamg‘armasi, 1-ro‘yxat, 67-ish, 1-varoq;

[10] Farg‘ona viloyati davlat arxivi 2151-jamg‘armasi, 1-ro‘yxat, 67-ish, 53–17-varoq;

[11] Farg‘ona viloyati davlat arxivi 2151-jamg‘armasi, 1-ro‘yxat, 67-ish, 70, 165-varoq.